



ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ

РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
МАТЕРИАЛЛАРИ

Самарқанд шаҳри, 2015 йил 1-2 май



**MODERN LINGUISTICS AND
COMMUNICATIVE PRINCIPLES
OF LINGUODIDACTICS**

**MATERIALS
OF SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**

Samarkand, May 1-2, 2015

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК
ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ
КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ**

**Республика илмий-амалий анжумани
МАТЕРИАЛЛАРИ**

Самарқанд, 2015 йил 1-2 май

САМАРҚАНД – 2015

Frazemalarda hozirgi nemis tilidagi sintaktik bog'lanishlarning deyarli barcha turlari o'z aksini topgan.

1. Frazemalarning ko'p qismi birikmaga teng qurilishli. Erkin birikmalarda bo'lganidek sintaktik qurilishli birikmaga teng frazemalarda ham tobe a'zo leksema shakl bilan, hokim a'zo esa leksema bilan ifodalanadi, frazema bir butun holda turg'un birikmaga teng bo'ladi.

Masalan, den großen Mund haben- kata gapirmoq

Den Mund halten-tilni tiymoq

Demak bu misollardan ko'rinib turibdiki, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida qismga teng bo'lib, biror sintaktik bo'lak vazifasida kela oladigan darajada grammatik shakllanganidan keyin butunga, birikma shaklga aylanadi.

2. Birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatidayoq birikma shakliga teng bo'ladi. Masalan: blaues Blut-oq suyak (kelib chiqishiga ko'ra oliy zot) frazema asli "sifatlovchi sifatlanmish" qolipida tuzilgan birikmalar teng, lekin bu frazema faqat birlik, bosh kelishik shaklidagina ishlatiladi, bunday grammatik tabiat ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub.

Ko'rinib turibdiki, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalarga bir butun holda tashqi grammatik shakllanish lisoniy birlik sifatida xos bo'lib, shu jihati bilan bunday frazema erkin birikmadan farqlanadi.

3. Frazemalarning bir qismi sintatik qurilishi jihatdan gap shakliga teng bo'lib, tarkibida ega bo'lak mavjud bo'ladi. Masalan: die Luft ist rein- atrof suv quygandek jim jit.

Bunday frazemaning gap shakliga teng ekanligi tarkibida ega vazifasidagi leksema shakl qatnashayotganligi va shu leksema shakldan anglashiladigan bajaruvchining shaxs-songa monand ravishda frazemaning oxirgi a'zosiga tuslovchi qo'shilayotganligi bilan belgilanadi. Tuslovchidan oldin bunday tuzilishli frazemaga bo'lishli- bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchisi qo'shiladi va grammatik ko'rsatkichlar frazemaga obyektiv voqelikka ko'ra nutqning o'zida tanlab qo'shiladi.

Ko'rinadiki, gapshaklga teng frazemada tuslovchining mavqei bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilarining mavqeidan keskin farq qiladi. Frazemani tuslovchining o'zi asosida gapshaklga teng deyish to'g'ri bo'lmaydi, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilari qo'shilganidan keyingina gapshakl yuzaga keladi. Demak, sintaktik qurilishi gapshaklga teng frazema ham asli qism holatida bo'ladi, to'liq grammatik shakllanganidan keyingina butunga teng bo'ladi.

Shunday qilib yuqoridan ayonki, frazemaning ifoda jihatiga uning tarkibidagi leksemalargina emas, balki frazemaning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadigan morfemalar ham mansub bo'ladi, chunki bunday morfemalar, o'rni bilan tuslovchi ham frazemaning ichki grammatik qurilishiga mansub bo'ladi. Frazemani nutqda ishlatish munosabati bilan qo'shiladigan morfemalargina uning ifoda jihatiga mansub bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Umarxo'jayev M: "Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi" Andijon 2010;
2. Bozorboyev K: "So'zlashuv uslubi frazeologizmlarining o'rganilishi \ \ tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari" Samarqand 1998;

TARJIMA JARAYONLARI, STRATEGIYALARI VA METODLARI

Pulatov B. (SamDChTI)

Tarjima, yozma yoki og'zaki til matni manbasini ko'chirishda, yozma yoki og'zaki til matni ob'yektini tenglashtirishda o'ziga hos tarzda ishlatilgan. Umuman olganda, tarjimaning maqsadi shuki, u har hil turdagi matnlarni, shu jumladan diniy, adabiy, ilmiy va falsafiy matnlarni boshqa bir tilga qayta uzatib berishdir va shu orqali o'quvchilarni doirasini kengaytirishdir. O'ziga hos madaniy tushunchalarni butunlay, sha'malarni esa qisman tarjima qilish tarjimonning eng muhim va da'vat qiladigan vasifasidir, boshqacha aytganda, ishoralar tarjimaning yashirin muammolaridir, chunki ishoralar o'ziga hos qo'shimcha bir ma'noga, asosiy til va chet el madaniyatida esa yashirin ma'noga egadir, ammo o'zimizning til va madaniyatimizda bu narsaga muhtojlik sezilmaydi.

Agar til umumiy va universal tushunchalar jamlamasiga tasnif bo'la olganida edi u holda asosiy tildan yo'naltirilgan tilga tarjima qilish biz uchun oson kechardi. Qolaversa, ushbu sharoitda kerakli tilni o'rganish jarayoni odatdagidan ko'ra ancha yengil bo'lardi. Bu borada Kuller tillar muayyan bir sohaga oid terminlar majmui emas deb ta'kidlaydi va bir tilni ma'nosi boshqa bir tildan keskin ravishda farq qilishiga ishonadi, binobarin, har bir til dunyoni o'zida o'zgacha tashkillashtirib, o'zgacha ifoda etadi, shuningdek, tillar kategoriyalarni nomlamasdan, balki ularni o'zlari ta'riflaydilar [1, p.21]. Kullerning fikrlarini hulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjimaning eng dolzarb muammolaridan biri bu tillar orasidagi tengsizlikdir. Asosiy til bilan yo'naltirilgan tilni orasidagi o'rtalik qancha katta bo'lsa, birinchi tildan ikkinchi tilga ma'noni ko'chirish shuncha qiyin bo'ladi.

Nyumark tarjima metodi bilan tarjima jarayoni orasidagi farqni quyidagicha ta'riflaydi: tarjima metodlari butun bir matnga bog'lansa, tarjima jarayonlari esa o'z navbatida gaplar va undan kichikroq til birliklari uchun ishlatiladi. [2, p.81]. U quyidagi tarjima metodlariga tayanadi:

1. **So'zma-so'z tarjima: (Word-by-word translation)** Bu metodda asosiy til so'z tartibi o'z holicha qoladi, so'zlar yoki iboralar esa ularning umumiy ma'nosiga ko'ra, grammatikaga e'tibor bermagan holda alohida tarjima qilinadi.

2. **Aniq tarjima: (Literal translation)** Mazkur tarjimada asosiy til grammatik qurilmalari eng yaqin yo'naltirilgan til ma'nodoshlariga ko'chiriladi. Leksik so'zlar esa bu holatda ham matndan holi ravishda alohida tarjima qilinadi. Aniq tarjima ilmiy, texnik, texnologik yoki rasmiy matnlarning texnik tarjimasini o'z ichiga oladi.

3. **Asl tarjima: (Faithful translation)** Bu tarjima asl tilning aniq bir kontekst ma'nosi va shu bilan yo'naltirilgan tilning grammatik tuzilishi cheklanishlarini hosil qilishga harakat qiladi. Bu metodda tarjimon, muallifning matndagi maqsadini boshqa tilga imkon qadar asliga mos qilib ko'chirishga harakat qiladi.

4. **Semantik tarjima: (Semantic translation)** Bu metod "asl tarjima" metodidan keskin farq qiladi, ya'ni bunda ko'proq asosiy til matnining estetik qiymati e'tiborga moyildir. Semantik tarjima - tarjimaning markaziy munosabati, ibora yoki gapni ma'nosini ko'chirishi kerakligini ko'rsatadi. (bunda, jumla o'zgarishi yoki asl holicha qolishi, tarjimon ko'rsatmoqchi bo'lgan muvozanatga bog'liq)

5. **Moslashuv: (Adaptation)** Tarjimaning eng cheklanmagan shakli bu moslashuv metodidir. U asosan pyessalar (komediya) va she'riyatda keng ishlatiladi; mavzular, obrazlar, g'oyalar saqlanadi, asosiy til madaniyati yo'naltirilgan til madaniyatiga ko'chadi va matn qayta yoziladi.

6. **Cheklanmagan tarjima: (Free translation)** Mazkur metod asosiy tilning uslubi, shakli yoki mundarijasiz yo'naltirilgan til matnini hosil qilishga qaratilgan. Cheklanmagan tarjimada asosan tarjimonga asosiy tildan yo'naltirilgan tilga tarjima qilishda ko'proq ifoda erkinligi beriladi.

7. **Idiomatik tarjima: (Idiomatic translation)** Bunda tarjima asl manba tilidan zamonaviy til ifodasiga olib kelinadi.

8. **So'zlashuv tarjimasi: (Communicative translation)** Ushbu metodda asosiy tilning aniq kontekst ma'nosi shunday yo'l bilan uzatiladiki, bunda mazmun ham til ham o'quvchilarga tayyor va mukammal holda uzatiladi. [5, 45-47]

Tarjima jarayoni eng muhim narsalarning biri ekanligini eslatib o'tishga majburmiz. Tarjima jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **O'zlashtirma (Borrowing)** - O'zlashtirmalar tarjima ichidagi eng sodda metod hisoblanadi. U, asosiy tildan olingan so'z yoki ifodani yo'naltirilgan tilda ishlatilishiga yo'naltiriladi. O'zlashtirmalarning tarjima jarayonida uchraydigan quyidagi uchta turi mavjuddir:

a) **Sof ko'chirma (Pure loanword)** shakl va ma'noda o'zgarish bo'lmagan o'zlashtirmalar. Masalan: email → email, internet → internet

b) **Aralash ko'chirma (Mixed loanword)** shakli ozgarib, ma'nosi o'zgarmagan o'zlashtirmalar.

Masalan: zone → zona-hudud, compensation → kompensatsiya

c) **Ko'chirma so'zlar (Loan blends)** Bunga terminni bir qismi tub so'z, ikkinchisi esa o'zlashtirma so'zdan yasalgan, ma'nosi esa butunlay o'zlashtirilgan o'zlashtirmalar kiradi.

Masalan: internet provider → internet ta'minotchisi

2. Aniq tarjima: (Literal translation)

Aniq tarjima deb asosiy til matnining yo'naltirilgan til matniga to'g'ridan to'g'ri ko'chirilishidir. Asosan, aniq tarjima bu ikki tomonlama va o'zgacha bekam-ko'st noyob yechimdir. Ingliz tilidagi "Honey moon" so'z birikmasi o'zbek tiliga "Asal oyi" deb tarjima qilinishini misol qilib olishimiz mumkin.

3. Qayta guruhlash (Transposition)

Qayta guruhlash so'zning bir sinfini, gapning ma'nosini o'zgartirmagan holda ikkinchi bir sinf so'zi bilan almashtirish bilan shug'ullanadi. Bu metod shuningdek, asosiy tildan yo'naltirilgan tilga tarjima qilishda uchraydigan grammatik o'zgarishlarni o'zgartirishga jalb qiladi (birlik sondan ko'plikka, sifatlarning joylashuvini, ma'lum bir sinfga taalluqli so'z yoki so'z turkumlarni o'zgartirishi). Masalan: ingliz tilidagi "Keyword" qo'shma oti, o'zbek tiliga "Kalit so'z" iborasi bo'lib tarjima qilinadi.

4. Tuslanish (Modulation)

Bu metod bizga bir hil fenomenni (ko'rinishni) har hil yo'l bilan ifoda etish imkonini beradi. Tuslanish, tarjima jarayoni sifatida, perspektiv hamrohlikdagi o'zgarishlar bilan yo'naltirilgan tildagi leksik (lug'aviy) o'zgarishlar o'zgarganda hosil bo'ladi. Tuslanishning ikki turi mavjud, ya'ni, 1. Erkin tuslanish; 2. Belgilangan tuslanish;

Masalan, "U urushda halok bo'ldi" jumlasini ingliz tiliga "He was killed in the war" deb tarjima qilinadi. "Rad qarshilik" (Negated contrary) degan o'zgacha tushuncha ham mavjud, bu, manba qiymati shaklini o'zgartirishda bo'lishsizdan bo'lishliga, bo'lishlidan bo'lishsizga tarjima qilishga chambarchas suyanadigan jarayondir, bu ham belgilangan tuslanish hisoblanadi. Masalan, "bu narsa qimmat" jumlasini "bu narsa arzon emas" deb tarjima qilinadi.

5. Ma'nodosh (Equivalent)

Bu termin tillarni bir hil holatni har hil stilistik yoki bo'lmasa strukturaviy ma'nolarni tasvirlash holatida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "Ouch!" undov so'zi o'zbek tiliga "Aaay" yoki "Ahh" deb tarjima qilinadi. Shuningdek, ingliz "Don't cry over spilt milk" idiomasi o'zbek tiliga "O'tgan ishga salovat" yoki "Don't count your chickens before the eggs have hatched" iborasi o'zbek tiliga "Jo'jani kuzda sanaymiz" deb tarjima qilinadi.

6. Moslashuv (Adaptation)

Adaptatsiyada tarjimon mazmun bilan manba matn shaklini o'zgartirish yo'li ustida shunday ishlaydi u o'sha til qoidalariga, shuningdek yo'naltiriladigan til madaniyatiga mos kelishini ta'minlaydi. Umuman olganda, bu jarayon tarjimada madaniy bogliq bo'lgan so'zlar/ifodalar, kinoyalar va tasvirlar uchun ishlatiladi. Madaniy almashinuv shunday holatga murojaat etadiki bunda tarjimon yo'naltirilgan tilda ma'nodosh so'zlarni qanday ishlatsa asosiy tilde ham aynan shu jarayon kuzatiladi. Boshqacha aytganda, tarjimon yo'naltirilgan tildagi madaniy so'zlarni, asosiy tildagi madaniy so'zlar bilan almashtiradi. Masalan: "She is innocent as an egg" – "U farishtadek begunoh".

Tarjimonlar ishoralarni ularni anglatuvchi qo'shimcha ma'noni tanish va anglash maqsadida har hil strategiyalarni qabul qilishdi. Agar yosh tarjimon muayyan bir matnni ishoralarga yetarlicha e'tibor bermay tasvirlasa, u holda yashirin ma'nolar to'laligicha ko'chirilmaydi, bu esa o'z navbatida tarjimonni ularni tushunishda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Yo'naltirilgan til o'quvchilarining ko'pchiligi esa bu ma'noni umuman tushunmay qoladi, natijada esa, tarjima samarali chiqmaydi. Munosib tarjimon asosiy tilda yaratilgan kuchli taassurotlarni, yo'naltirilgan til o'quvchilar uchun ham huddi ana shunday (kamida o'xshatish orqali) yetqazib berishi kerak. Umuman olganda, tarjimon matnni tarjima qilish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelsa, u har hil strategiyalarni qo'llaydi; bu degani, agar tarjimon muayyan bir matnni so'zma-so'z, asliga mos qilib tarjima qiladigan bo'lsa, u holda tarjima strategiyalari umuman kerak bo'lmaydi. Bergen strategiyalarni aniq va ahamiyatsiz bo'lmaydi deya ta'kidlaydi. Havaskor tarjimonlar matnni so'zma-so'z va lug'at ishlatgan holda tarjima qilishiga qaramay, tarjima bobida ular tarjima zo'r

qilindi deb o'ylashlarda ular tarjimada muammo hali ham borligini va ma'lum bir darajada tarjimaga o'zgartirish kiritilishi kerakligini tushunishmaydilar. Shunday ekan, strategiya funksiyasining eng muhim jihati bu muammoni-yechishdir.

ADABIYOTLAR

1. Culler, J. Strukturaviy poetika: strukturalizm, lingvistika, adabiyotni o'rganish. Kornel: Kornel universiteti nashriyoti. (1976).
2. Nyumark, P. Tarjimaga yondashuvlar. Hertfordshire. Prentice Hall. (1988).
3. Richards, et al. Qo'llanilgan lingvistiklar Longman lug'ati. UK; Longman. (1985).

ORAL COMMUNICATION SKILLS IN PEDAGOGICAL RESEARCH

Tagaeva T.B. (SamSIFL)

A review of some of the current issues in teaching oral communication will help to provide some perspective to the more practical considerations that follow in this article.

One of the major obstacles learners have to overcome in learning to speak is the anxiety generated over the risks of blurting things out that are wrong, stupid, or incomprehensible. Because of the language ego that informs people that "you are what you speak," learners are reluctant to be judged by hearers. Language learners can put a new twist on Mark Twain's quip that "*it's better to keep your mouth closed and have, others think you are ignorant than to open it and remove all doubt.*" Our job as teachers is to provide the kind of warm, embracing climate that encourages students to speak however halting or broken those attempts may be [1].

The greatest difficulty that learners have in learning to speak is not in the multiplicity of sounds, words, phrases, and discourse forms that characterize any language, but rather in the interactive nature of most communication. Conversations are collaborative as participants are engaged in a process of negotiation of meaning. So, for the learner, the matter of **what** to say - a tremendous task, to be sure - is often eclipsed by conventions of **how** to say things, **when** to speak, and other discourse constraints. Among the many possible grammatical sentences, for example that a learner could produce in response to a comment how does that learner make a choice?

In teaching oral communication, we don't limit students' attention to the whole picture, even though that whole picture is important. We also help students to see the pieces-right down to the small parts-of language that make up the whole. Just as you would instruct a novice artist in composition, the effect of color hues, shading, and brush stroke techniques, so language students need to be shown the details of how to convey and negotiate the ever elusive meanings of language.

Some learners are not particularly concerned about their pronunciation while others are. The extent to which their intrinsic motivation propels them toward improvement will be perhaps the strongest influence of all six of the factors in this list. If that motivation and concern is high, then the necessary effort will be expended in pursuit of goals. You can help learners to perceive or develop that motivation by showing, among other things, how clarity of speech is significant in shaping their self-image and ultimately, in reaching some of their higher goals.

At least one general conclusion that can be drawn from the study of learners' errors is that learners are indeed creatively operating on a second language - constructing, either consciously or subconsciously, a system for understanding and producing utterances in the language. That system should not necessarily be treated as an imperfect system; it is such only insofar as native speakers compare their own knowledge of the language to that of the learners. It should rather be looked upon as a flexible, dynamic system, reasonable to a great degree in the mind of the learners, albeit idiosyncratic. Learners are processing language on the basis of knowledge of their own interlanguage, which ought not to have the value judgments of either language placed upon it. Your task as a teacher is to value learners, prize their attempts to communicate, and then to provide optimal feedback for the system to evolve in successive stages until learners are communicating more clearly [2].

A very limited portion of classroom speaking time may legitimately be spent in the human "tape recorder" speech, where learners are, for example, practicing an intonation contour, trying to

Azizova D.B. About some importance of assessment in learning process	224
Абдурахимова Ф. Передача прагматических особенностей фразеологических единиц в ракурсе коммуникативного контекста.....	225
Abdurahmonov S. Nemis tilida frazeologik birliklarning ifoda jihati xususida ba'zi mulohazalar	227
Pulatov B. Tarjima jarayonlari, strategiyalari va metodlari	228
Tagaeva T.B. Oral communication skills in pedagogical research	231

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ
КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ**

(РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ)

Мухаррирлар: А. Кўчибоев, Т.Васкин
Мусахҳиҳлар: С. Каримова, С.Аъзамова
Техник муҳаррир: Ҳ. Амирдинов
Компьютерда саҳифаловчи: З. Ҳамдамов

ISBN 978-9943-4396-0-3

Босишга 28.04.2015 йилда рухсат этилди.
Қоғоз бичими А4. Офсет қоғози. Шартли босма табоғи 12,0.
Нашриёт ҳисоб табоғи 10,0. Адади 100 нусха. Буюртма №55.

СамДЧТИ нашр-матбаа марказида чоп этилди.
Манзил: Самарқанд шаҳри, Бўстонсарой кўчаси, 93-уй.